



Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishining psixolingvistik asoslari

Maxmudova Oygul Toxirjonovna –

Farg'ona davlat universiteti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: mahmudovaoygul920@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1423-8218>

Mirzayeva Risolatxon Shokirjon qizi –

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixolingvistika tili va tafakkur o'zaro aloqasi, nutq ishlab chiqarish va idrok etish jarayonlarini hamda tilni o'zlashtirish mexanizmlari tadqiq qilinadi. Ushbu fan lingvistika va psixologiya chorrahasida XX asr o'rtalarida shakllangan bo'lib, 1960-70-yillarda mustaqil yo'nalish darajasiga ko'tarilgan – bu esa bolalar nutqini yanada chuqurroq o'rganish uchun imkoniyat yaratdi. Yana bir muhim nazariy prinsip – bu nutq va tafakkur dialektikasidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fikrning moddiy asosi – nutqdir, ya'ni til fikrni ifodalash vositasi bo'libgina qolmay, fikrni shakllantiruvchi vosita hamdir. Demak, inson tafakkuri va nutq jarayoni o'zaro chambarchas bog'liq: til vositasida fikrlash amalga oshadi va aksincha, tafakkur jarayonlari nutq tuzilishida namoyon bo'ladi. Nutq va tafakkur birligi psixolingvistik tadqiqotlarning markaziy g'oyalaridan biri bo'lib, bu tamoyil L.S.Vigotskiy, A.A.Leontev kabi olimlar tomonidan ham ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: psixolingvistika, nutqiy faoliyat, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy muloqot, antroposentrik tamoyil, emotsional muloqot.

Психолингвистические основы развития речи у детей дошкольного возраста

Аннотация. В данной статье исследуется взаимосвязь языка и мышления в психолингвистике, процессы производства и восприятия речи, а также механизмы овладения языком. Данная наука сформировалась на стыке лингвистики и психологии в середине XX века и к 1960-1970-м годам вышла на уровень самостоятельного направления, что открыло возможности для более глубокого изучения детской речи. Еще один важный теоретический принцип — это диалектика речи и мышления. Исследования показывают, что материальной основой мысли является речь, то есть язык не только служит средством выражения мыслей, но и формирует саму мысль. Таким образом, процессы мышления и речи тесно взаимосвязаны: мышление осуществляется через язык, а мыслительные процессы отражаются в структуре речи. Единство речи и мышления является одной из центральных идей психолингвистических исследований, что подчеркивалось такими учеными, как Л.С.Выготский и А.А.Леонтьев.

Ключевые слова: психолингвистика, речевая деятельность, когнитивное развитие, социальное общение, антропоцентрический принцип, эмоциональное общение.

Psycholinguistic foundations of speech development in preschool children

Annotation. This article examines the relationship between language and thought in psycholinguistics, the processes of speech production and perception, and the mechanisms of language acquisition. Psycholinguistics emerged at the intersection of linguistics and psychology in the mid-20th century and reached the status of an independent field in the 1960s–1970s, providing opportunities for a deeper study of children’s speech. Another important theoretical principle is the dialectic of speech and thought. Research shows that the material basis of thought is speech; that is, language not only serves as a means of expressing thought but also as a tool for shaping thought itself. Thus, human thinking and speech processes are closely interconnected: thinking is carried out through language, and cognitive processes are reflected in the structure of speech. The unity of speech and thought is one of the central ideas in psycholinguistic research, emphasized by scholars such as L.S. Vygotsky and A.A. Leontiev.

Keywords: psycholinguistics, speech activity, cognitive development, social interaction, anthropocentric principle, emotional communication.

KIRISH

Psixolingvistikaning asosiy tushunchalaridan biri – nutqiy faoliyat tushunchasidir. Nutqiy faoliyat til va nutqning birligini ta'minlaydi va unda shaxs omili muhim ahamiyatga ega: til har doim uni egallagan muayyan inson tomonidan qo'llaniladi [5, 14]. Shu bois zamonaviy lingvistikada antropotsentrik tamoyil kuchaymoqda, ya'ni til hodisalarini inson omili bilan bog'liq holda o'rganish muhim sanaladi. Psixolingvistika til tizimi bilan uni amalda qo'llovchi shaxsni birgalikda ko'rib, nutqiy faoliyatning ijtimoiy va individual xususiyatlarini birlashtiruvchi tamoyillarga tayanadi [5, 22].

Psixolingvistika nutq faoliyatining murakkab, ko'p qirrali tabiatini – biologik, psixik va ijtimoiy omillar birligida qaraydi. Nutqiy faoliyat yuksak darajada shakllangan psixolingvistik jarayon bo'lib, idrok (sezgi), diqqat, xotira, tafakkur va xayol kabi asosiy kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda kechadi [7, 46]. Bu fan nutqning asosiy qonuniyatlarini ochib berishga, inson ongidagi til mexanizmlarini va kommunikativ jarayonni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Nutq faoliyatining psixologik asoslari deganda, avvalo, bolaning nutqini shakllantiruvchi ichki mexanizmlar va omillar tushuniladi. Inson bolasida nutqni o'zlashtirish tug'ma qobiliyat (biologik asos) va tashqi muhit ta'siri (ijtimoiy tajriba)ning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga chiqadi [6, 89]. Masalan, N.Xomskiy tilning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida insonning boshqalardan eshitmagan jummalarni tuza olishi, ya'ni tilning ijodkorlik xususiyatini alohida ta'kidlaydi. Bu qarashga ko'ra, bola miya tuzilishida tilni o'zlashtirish mexanizmi (LAD) bilan tug'iladi va juda ko'p yangi jummalarni mustaqil yaratishi mumkin – jumlar soni cheksizdir [2, 58]. Shu bilan birga, Xomskiyning o'zi ham taqlid va mustahkamlash (rag'bat) kabi omillarni inkor etmaslik lozimligini aytadi; haqiqatda, bolalar tiliga ijtimoiy o'rganish omillari ham katta ta'sir ko'rsatadi. Demak, til o'rganish naqadar tug'ma qobiliyatga tayansa, uni rivojlantirishda atrof-muhit va tarbiyaning roli ham muhimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Psixolog olimlar nutq o'zlashtirishni bolaning umumiy psixik rivojlanishi kontekstida ko'rib chiqadilar. Masalan, L.Vigotskiy va A.Leontev nutq rivojlanishi evolyutsiyasini xotira, fikrlash kabi idrok jarayonlari evolyutsiyasi bilan muvofiqlikda o'rganish kerakligini ta'kidlaganlar. Ularning nazarida, bola tilni o'zlashtirishi uchun uning kognitiv (idrok etish, eslab qolish, mantiqiy fikrlash) qobiliyatlari ma'lum poydevorga ega bo'lishi zarur. Shuningdek, motivatsiya va muloqot ehtiyoji ham nutq faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omillardandir – bola o'z fikrini o'zgaga yetkazish zarurati tufayli so'zlashga intiladi.

Bolaning til o'rganish jarayoni tug'ilgan ilk kunlardan start oladi. Tadqiqotlarga ko'ra, bola hayotining dastlabki birinchi oyidan boshlab tarbiya va muloqotni faqat parvarish bilan cheklamaslik kerak [4, 63]. Chunki aynan go'daklik davridan boshlab eshitish analizatorini rivojlantirish, shuningdek, bolaning emotsional sohasini – kulgu, tabassum, turli ovoz tonlariga reaksiyani rag'batlantirish lozim, bu elementlar keyinchalik nutq rivojiga xizmat qiladi. Masalan, ona go'dak bilan doimo gaplashib, yuzidagi ifodalar va ovoz ohanglari orqali unga ta'sir ko'rsatar ekan, bola asta-sekin aytilganlarni tushunishni va atrof-muhit bilan muloqot qilishni boshlaydi [6, 96]. Shunday qilib, ilk davrdan boshlab kattalarning gap-so'zlarini eshitish, mimika-va intonatsiyalarini kuzatish orqali bola nutq faoliyatining asoslarini ong ostida o'zlashtira boradi.

Til o'zlashtirishning psixologik asosida, shuningdek, o'yin va ijtimoiy muloqot muhim o'rin tutadi. Ilk va maktabgacha davrdagi bolalar atrofdagilar bilan o'yin orqali muloqotga kirishib, tilning amaliy qo'llanilishini o'rganadilar. Kichik bolalarning muloqoti dastlab emotsional-erkin muloqot ko'rinishida namoyon bo'ladi – bola onasi yoki yaqin kattalar bilan hissiy aloqaga kirishadi [1, 48]. Keyinchalik, bola o'yin jarayonida yangi so'z va

gaplarni qo'llashga, tengdoshlari bilan til vositasida fikr almashishga urinadi. Taqlid bu yerda asosiy mexanizmlardan biri: bola kattalarning nutqini va talaffuzini ko'chiradi, ularning so'z boyligi va gap qurilishini o'zlashtiradi.

Nutq faoliyati va tilni o'zlashtirishning psixologik asoslari murakkab kompleksni tashkil etadi. Bunda biologik mexanizmlar (miya va eshitish apparati faoliyati), kognitiv jarayonlar (idrok, xotira, tafakkur), emosional holat (muloqotdan oladigan hissiy qoniqish) hamda ijtimoiy o'zaro ta'sir (ota-ona va atrofdagilar bilan muloqot) birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy ilmiy manbalarda qayd etilishicha, bola umr bo'yi oladigan axborotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrida oladi, bu davrda nutq va tafakkur jadal rivojlanishini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi [4, 67].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bolalar nutqining rivojlanishi izchil bosqichma-bosqich kechadi. Tug'ilgandan keyingi ilk yillarda bola tovushlar dunyosiga moslashib, taxminan 1 yosh atrofida ilk so'zlarini ayta boshlaydi. 1 yoshdan 2 yoshgacha bola bir so'zli gaplar davrini bosib o'tadi – dastlab yagona so'z bilan butun bir fikrni ifodalashga urinadi (masalan, bola “suv” so'zi bilan “suv ber”, “suv ichaman” va hokazo ma'nolarni bildirishi mumkin). 1,5 yoshdan 2 yoshgacha esa ikki so'zli gaplar davri kuzatiladi: bola oddiy ikki so'zli birikmalar bilan o'z fikrini ifodalaydi (masalan, “Dada keldi”, “Oyim ber”) [2, 81]. 2 yosh oxiriga kelib teleqisqa gaplar tuzish bosqichi boshlanadi – bola 2-3 so'zdan iborat sodda jummalarni tuzadi va shu orqali o'z ehtiyoj hamda fikrlarini tushunarliroq ifodalay boshlaydi [9, 47].

3 yoshga kelib bola nutqining rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi. Lug'at boyligi sezilarli darajada ortib, taxminan 900–1000 ta so'z atrofida bo'ladi. 3–4 yosh oralig'ida bola nutqi tez boyib boradi: so'z boyligi 1000 tadan 1500 tagacha kengayadi, atrof-muhitdagi narsalar nomi, ranglar, shakllar, vaqt kabi tushunchalarni ham o'zlashtira boshlaydi. Bola bu davrda sodda gaplardan murakkabroq gaplarga o'tadi: masalan, bog'lovchi vositalarni (“va”, “chunki” kabi) qo'llab, bir nechta bo'lakli gap tuzishga urinadi. Fe'l zamonlari tushunchasi ham shakllana boshlaydi – bola hozirgi va kelasi zamon fe'llarini, ayrim hollarda o'tgan zamonni ham to'g'ri qo'llashga intiladi [10, 65]. Talaffuz borasida 3–4 yoshda ancha yutuqlarga erishiladi: bolalarning nutqi ota-onalar va yaqindan muloqot qiladigan odamlar uchun deyarli tushunarli bo'lib boradi, faqat ayrim qiyin tovushlar (“r”, “j” kabi) hali to'liq chiqmasligi mumkin. Masalan, ko'plab bolalar 3 yosh atrofida “r” tovushi o'rniga “y” yoxud “l” deyishi, “sh” o'rniga “s” ishlatishi kuzatiladi [4, 93] – bu hol normal logopedik rivojlanish jarayoniga xos va keyinchalik bartaraf etiladi.

4–5 yosh davrida bolalarning nutqi grammatik jihatdan takomillashadi. So'z boyligi taxminan 1500–2500 tagacha yetadi, jummalari yanada ravonlashadi. Bu yoshga kelib, bola ko'plik, egalik qo'shimchalari va ba'zi murakkab gap tuzilmalarini anglay oladi – masalan, sodda bog'langan qo'shma gaplar yoki “agar..., -sa...” kabi ergashgan qo'shma gaplarni tushuna boshlaydi. 5–6 yoshda esa nutq rivojlanishi maktabga tayyorgarlik bosqichiga qadam qo'yadi. Bolaning lug'at boyligi 2500–5000 so'zga yetishi mumkin, nutqda abstrakt tushunchalar ham paydo bo'la boshlaydi. Bola murakkab gaplarni – o'tgan zamon, hozirgi va kelasi zamon shakllarini aralashtirib, ergashgan va bog'lovchi vositali uzun jummalarni – bema'lol tuza olish qobiliyatiga ega bo'lib boradi.

Tovush va talaffuz jihatdan 5–6 yoshga kelib bola ona tilidagi deyarli barcha fonemalarni aniq aytishni o'rganadi. Agar ilgari ba'zi tovushlarni buzib aytgan bo'lsa, bu davrda logopedik mashqlar yordamida ular to'g'rilanadi va nutq tobora ravon hamda tushunarli bo'lib boradi. 5 yosh oxiriga kelib, odatda bola to'liq grammatik jihatdan to'g'ri jumlar tuza oladi va nutqining mantiqiy tuzilishi yetuklashadi. Misol uchun, 5–6 yoshlardagi bola fikrini bir necha gapda izchil bayon eta oladi, ertak yoki voqeani so'zlab bera oladi, savollarga to'g'ri javob qaytaradi va o'zi ham savollar berishga qiziqadi.

Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida ayrim xususiyatlar saqlanib turadi. Psixologlar P.Jan Piaje ta'riflagan egotsentrik nutq 3–6 yosh bolalarida kuzatiladi,

ya'ni bola o'z nutqini hali tinglovchi nuqtai nazaridan to'liq moslashtira olmaydi, ko'pincha o'z "meni" atrofida gapiradi. Masalan, 3–4 yosh bolasi vaziyatga qarab ovozini pasaytirib yoki balandlatib gapirishni yangi o'rgana boshlaydi, muloqot chog'ida ba'zan o'zi uchun qiziqarli mavzuda davom etaveradi – go'yoki suhbatdoshi borligini unutib qo'yadi. Egotsentrik nutq ularda 6–7 yoshga kelib asta-sekin kamayadi va bola nutqi tobora dialogik, muloqotga yo'naltirilgan xususiyat kasb eta boshlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nutq faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi insonning boshqa psixik jarayonlari bilan uzviy aloqadadir. Diqqat (e'tibor), idrok (sezgi), xotira, tafakkur va xayol (fantaziya) kabi jarayonlar bola nutqining o'sishida muhim omillardan sanaladi. Psixolingvistika sohasidagi tadqiqotlar ko'rsatadiki, bola nutqi rivojlanishi evolyutsiyasi xotira va tafakkur evolyutsiyasi bilan muvofiq kichadi [2, 76]. Boshqacha aytganda, bola til o'rganishi uchun uning eslab qolish qobiliyati, diqqatni jamlay olishi, atrofni idrok etishi va aqliy tafakkuri ma'lum rivojlanish darajasida bo'lishi zarur. Masalan, kichik bola yangi so'zni eshitganda uni xotirasida saqlaydi, idrok jarayonida uni predmet yoki harakatga bog'laydi, tafakkuri esa shu so'z orqali tushunchani shakllantiradi – ana shu integratsiya natijasida nutq boyligi ortib boradi. Demak, nutq – bu bir paytning o'zida kognitiv (bilish) jarayon hamdir, unda barcha idrokiy funksiyalar ishtirok etadi.

Diqqat va idrok nutq o'zlashtirishning ilk shartidir. Bola atrofda nutqiy hodisalarga diqqat bilan e'tibor bermasa, so'zlarni o'rganishi qiyinlashadi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, bola muloqotga kirishganda nafaqat emosional, balki vizual idroki ham muhim – u so'zlovchining yuzini, lab harakatlarini ko'rishi kerak [4, 94]. Masalan, kichkina go'dak onasining gapirayotganida yuz ifodasi va lab qimirlatishini kuzatib, subtorkibda nutq tovushlarini idrok etadi va ularni takrorlashga harakat qiladi. Ayniqsa, eshitish imkoniyati bu borada hal qiluvchidir: atrof-muhit tovushlari ta'siridan mahrum bo'lgan bolalarda nutqning tabiiy rivoji buziladi. Masalan, tadqiqotlar ko'rsatadi, eshitmaydigan (kar) chaqaloqlar odatda 4–5 oylik davrda sog'lom bolalar kabi hayajonlanib chiyillashmaydi, chunki ular uchun eshitish orqali o'z ovozini boshqarish mexanizmi ishlamaydi. Demak, e'tibor va idrokning zaifligi yoki hissiy-tuyg'ularning yetarli rag'batlanmasligi nutqiy rivojlanishni sekinlashtirishi mumkin.

Xotira – lug'at to'planishining asosiy omillaridan. Bola eshitgan yangi so'zlarini xotirasida saqlab qolishi tufayli keyinchalik ularni takrorlaydi va aktiv nutqiga kiritadi. 3 yoshli bola so'zlarni qayta-qayta takrorlash orqali o'z xotirasiga mustahkam joylaydi va nutqiy boyligini oshiradi [7, 49]. Olimlarning ta'kidlashicha, ayniqsa qisqa muddatli xotira hajmi oshgani sari bola uzunroq gaplarni eslab qolib, muloqotda qo'llay oladi. Shu bilan birga, mantiqiy xotira – ma'no va kontekstni bog'lab eslab qolish qobiliyati – ham maktabgacha davr oxiriga borib shakllana boshlaydi, bu esa matn mazmunini tushunib qayta hikoya qilish, eshitgan ertagini so'zlab berish kabilarda namoyon bo'ladi.

Tafakkur va nutq o'rtasidagi bog'liqlik o'ziga xos doirada namoyon bo'ladi. Nutq tafakkur mahsulini ifodalasa, ayni paytda yangi fikrlar tug'ilishida nutq vositasi yordam beradi. Bola biror fikrni aytish jarayonida o'z tafakkurini ham izchil shakllantiradi. Masalan, maktabgacha yoshdagi bola oddiy gap tuzish jarayonida voqealar ketma-ketligini mantiqan tartibga solishga urinadi – bu uning mantiqiy tafakkurini charxlaydi. Tasavvur va xayol ham bolaning nutqida o'z aksini topadi: ertak to'qish, rolli o'yinlar jarayonida bola tasavvuridagi voqealarni nutq orqali ifodalaydi, shu tariqa nutqiy ijodkorlik va xayoliy tafakkuri rivojlanadi.

Emotsiyalar nutq rivojida muhim ahamiyatga ega jihatlardan. Kattalar bilan emosional muloqotga boy muhitda o'sgan bolalar odatda nutqni tezroq o'zlashtiradi. Masalan, ona bilan iliq va hissiy aloqa o'rnatgan go'dakning "jonlanish kompleksi" erta shakllanib, u tovushlarga va so'zlarga nisbatan faolroq reaksiyalar ko'rsatadi [1, 68]. Ilmiy tadqiqotlar

ko'rsatishicha, bolaning emotsional holati nutqiy faollikka ta'sir qiladi – quvnoq, xushchaqchaq kayfiyatdagi bolalar ko'proq va ravonroq gapirishga moyil bo'ladi, kuchli salbiy emotsiyalar esa vaqtincha nutqiy faollikni susaytirishi mumkin. Shu bois, logoped va psixologlar bolada nutqni rivojlantirishda avvalo unga xotirjam va qulay psixologik muhit yaratishni tavsiya etadilar.

Yuqoridagilarni jamlab aytsak, nutq rivojlanishi inson psixikasining barcha asosiy jarayonlari bilan uzviy bog'liq. Bola ruhiy kamolotining ko'p jihatlari nutq bilan bog'liq ravishda rivojlanadi – shuning uchun nutq taraqqiyoti orqada qolsa, ko'plab kognitiv va ijtimoiy funksiyalarda ham sustlik kuzatilishi mumkin. Masalan, nutqida sust bolada yangi bilimlarni eslab qolish qiyinlashadi, diqqatni bir joyga jamlash va fikrlarni mantiqan bog'lashda ham muammo tug'ilishi mumkin. Aksincha, bilish jarayonlari jadal rivojlanishi nutqiy o'sishni rag'batlantiradi. Shu bois maktabgacha tarbiya jarayonida faqat nutqni o'stirish bilangina cheklanmay, bolaning idrok, xotira, tafakkur va emotsional olamini birgalikda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

XULOSA

Umuman olganda, 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr bola nutqining ongli ravishda shakllanish va takomillashish davri hisoblanadi. Bu bosqichlarda lug'at boyligi kengayishi, grammatik qurilish murakkablanishi va talaffuzning to'g'rilanishi bilan birga, nutqning kommunikativ funksiyasi ham rivojlanadi. Bola endi nafaqat o'z ehtiyojlarini bildirish, balki atrofdagi hodisalar haqida fikr almashish, tasavvur va xayollarini ifodalash, savol-javob qilish kabi nutqiy faoliyat turlarini ham egallab boradi. Ilmiy manbalarga ko'ra, 5 yoshgacha bo'lgan davrda bolaning aqliy va nutqiy rivojlanishi juda jadal kichadi [4, 98], shu sababli bu davrdagi tarbiya va o'qitish sifatini to'g'ri yo'lga qo'yish keyingi bosqichlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Xulosa o'rnida aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan yondashuv va tizimli metodika zarur. Psixolingvistika fanining yutuqlari bu sohada mustahkam nazariy poydevor yaratib berdi. Nutq rivoji bosqichlari, uning psixologik mexanizmlari va omillari to'g'risidagi bilimlar pedagoglarga har bir bola bilan qanday ishlash, qaysi usullar samarali ekanini anglashda yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilaviy tarbiyada zamonaviy ilmiy tavsiyalarga tayangan holda olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida bolalarda og'zaki nutqning to'laqonli rivojlanishiga erishish, ularni keyingi ta'lim bosqichlariga – maktab ta'limiga muvaffaqiyatli tayyorlash mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M.M.Fayzullayeva Nutq rivojlantirish psixolingvistik ta'limiy asoslari. – Journal of New Century Innovations, 2023, №30 (3).
2. Sh.A.Abdugayumova Bolalar nutqi rivojlanishining psixolingvistik talqini. – Academic Research in Educational Sciences (ART), 2023, №6.
3. M.F.Hayotova Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish. – Ilmiy maqola, –2024.
4. A.Q.Usmonov, U.B.Usmonova Nutq rivojlantirishning samarali metodlari va usullari. – Jizzax Davlat Ped. Instituti ilmiy axborotlari, 2022, №1.
5. D.Boboxonova Psixolingvistika. – Ma'ruza matni, Namangan, –2019.
6. G'.Iskandarova Maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqotga kirishish xususiyatlari. – O'zbek tilshunosligida psixolingvistik tadqiqotlar to'plami, 2021.
7. Y.I.Tixomirova Maktabgacha yoshdagi bola nutqini rivojlantirish. – Toshkent, "O'qituvchi", –1976.
8. M.Q.Qurbonova Bola nutqining lingvistik va pragmatik xususiyatlari. – Filol. fan. dokt. (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, –2020.

9. G'.Iskandarova Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanishi: kuzatishlar va tahlillar. – O'zbekiston filologiya jurnal (maxsus son), –2019.
10. R.Brown A First Language: The Early Stages. – Harvard University Press, –1973.